



NOQULAY IQLIM SHAROITIDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALAR QO'LLASH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



2025-yil 21-22-aprel

10,5% ni tashkil etib, tuproq namligi 70-75-75% ga oshirilganda esa qanddorlik 0,1-0,3% ga kamaygani aniqlandi.

Qovun yozgi navlari har xil sug'orish tartibotida yetishtirilgan hosili turli qurutish usullarida o'rganilganda, meva etiga nisbatan yuqori qoqi chiqimi 9,8-13,8% gacha o'zgarib, qoqi hosildorligi gektaridan 2,34-5,16 tonnani tashkil etdi.

Sun'iy kameralarda quritilganda mavjud (gelio) oftobda quritishga nisbatan qoqi chiqimi 1,2-1,6% ziyod bo'lib, 11,013,8% ni tashkil etishi aniqlandi. Eng yuqori qoqi chiqimi 11,8-13,8% yoki qoqi hosildorligi 3,53-5,16 t/ga o'rganilgan qovun yozgi navlari (Mahalliy Samarqand obi novvoti, Novotkalla, Ich-qizil) sug'orish tartiboti dala nam sig'imiga nisbatan 65-70-70% dan yuqori ushlanganda kuzatildi.

Xulosa. Samarqand viloyati yangidan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida qovun yozgi Mahalliy Samarqand obi novvoti, Novotkalla va Ich-qizil navlaridan dala nam sig'imiga nisbatan 65-70-70% dan yuqori tuproq namligini ushlab, 6 marta 1-2-3 tartibda sug'orish orqali gektaridan 30-35 t/ga hosildorlikni ta'minlanib, mavjud, ayniqsa sun'iy usulda qurutilganda eng yuqori (3,53-5,16 t/ga) sifatli (8,0-9,5 ball) eksportbop qovun qoqi olishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002. -B.217.
2. Abdolnizoyov B.O., Gulimov G.S. Xorazm qovunlari. Urganch. 2008.-B.103
3. Bo'riyev X.Ch., Ashurmetov O.A. - Poliz ekinlari biologiyasi va ularni yetishtirish texnologiyasi. T.:Mehnat. -2000. -B.15-48.
4. Государственный реестр сельскохозяйственных культур, рекомендованных к посеву на территории Республики Узбекистан. Ташкент. 2025. -С.98.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва.1985.-С.351.
6. Литвинов С.С. Методика полевого опыта в овощеводстве. Москва. 2011. -С.648.
7. Mavlyanova R., Rustamov A., Hakimov R., Hakimov A., Turdiyeva M., Payylosi-O'zbekiston qovunlari. IPGRI. Toshkent. 2005. -B.206.
8. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., O.Q.Qodirxo'jayev. Meva-sabzavotchilik (Sabzavotchilik). Toshkent. Navro'z. 2019. -B. 552.
9. Остонақулов Т.Э., Тилавов Х.М. Оценка пригодности коллекции сортов дыни к различным способам сушки в условиях новоорошаемых сероземных почв Зарафшанской долины. Актуальные проблемы современной науки, ISSN 1680- 2721. № 1(104), 2019. Москва. -С.123-126.
10. Остонақулов Т.Э., Буриев Х.Ч., Амиров Х.С. Полиэчилик. Дарслик. Тошкент. 2023.-Б.252.

УДК 582

BUXORO VILOYATI SHAROITIDA QO'ZIQORIN YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI.

Atayeva Zamira Alimovna

Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrası o'qituvchisi

Yaxyoyeva Mehrinoz Qobilovna

Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yonalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungu kunda oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarida intensiv texnologiyalarni qo'llash va ular yordamida yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi tarmoqlarida namayon bo'ladi. Ushbu maqolada Buxoro viloyati sharoitida qo'ziqorinning Shampinyon navini yetishtirishni o'rganish to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi. Tadqiqot jarayonida qo'ziqorin yetishtirish texnologiyalarini ilmiy va amaliy holda tushuntirish hamda yangi zamonaviy texnologiyalarda foydalanishning ahamiyati to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'z: Qo'ziqorin, mitsiliy, qo'ziqorin navi, yetishtirish usullari, kompost, harorat.

Аннотatsiya: Сегодня одной из важнейших задач является использование интенсивных технологий в процессах производства продуктов питания и получение с их помощью высококачественной продукции. Это особенно заметно в сельскохозяйственном секторе. В данной статье кратко рассматривается изучение выращивания гриба сорта Шампиньон в условиях Бухарской области. В ходе исследования были даны научные и практические пояснения технологий выращивания грибов и показано значение использования новых современных технологий.

Ключевые слова: Гриб, мицелий, разновидность гриба, методы выращивания, компост, температура.

Abstract: Today, one of the most important tasks is the use of intensive technologies in food production processes and the production of high-quality products with their help. This is especially noticeable in the agricultural sector. This article briefly examines the study of growing the Champignon mushroom in the Bukhara region. The study provided scientific and practical explanations of mushroom growing technologies and showed the importance of using new modern technologies.

Keywords: Mushroom, mycelium, mushroom variety, growing methods, compost, temperature.

Kirish. Garchi barcha tarmorqalarda ekilmasada, qo'ziqorinning inson salomatligi va uni ekib yetishtirish bir oz harakat va mashaqqatni talab qiladi, qo'ziqorinlarning yer yuzida 100 mingdan ortiq turi mavjud. O'zbekistonda esa 100 dan ortiq turi o'sadi, shundan atigi 25 turigina iste'molga yaroqli hisoblanadi. Qo'ziqorinning eng asosiy ustunligi oqsilning konidir. Unda oqsil tuxumdan ikki barobar, go'shtdan uch barobar ko'p. Fosfor va kaliy bilan raqobatdosh. Shu bilan birga, u juda to'yimli hisoblanadi. Qo'ziqorinli taomlar bilan birga organizm vitamin, aminokislotalar, mikroelementlar katta miqdorini qabul qiladi. Uning tarkibida PP vitamini qon hosil bo'lish jarayonida muhim rol o'ynab, tomirlar devorini mustahkamlaydi. Q'oziqorin qondagi yomon xolestirin miqdorini pasaytiradi. U shuningdek qandli diabet bilan og'rigan kishilarga foydali, chunki unda yo' juda oz bo'lib, xolestirin yo'qdir, biroq u oqsil, vitamin, mineral, suv va kletchatkaga boydir. Yana ular tabiiy insulin va fermentlarga boy bolib, u kraxmalli taomlarni parchalashga yordam beradi. Yurak-qon tomir kasalliklari ortiqcha vazn, qon bosimi oshishida ham uning foydaliligi tan olingan. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida qo'ziqorinning Shampinyon (*Agaricus*) navi urug'lik mitsiyilisini hamda hosilini yetishtirish yo'lga qo'yilgan. U agarikadoshlar oilasiga mansub qalpoqchali zamburug'lar turkumi, qo'ziqorinnig 60 yaqin turi ma'lum, juft sporali turi keng tarqalgan bo'lib, maxsus nim qorong'u salqin va nam muhitda harorat 20-25 C⁰, namlik 80-90% so'kchaklarda yetishtiriladi.



1-rasm.Shampinyonlarning tashqi ko'rinishi.

Tatqiqot materiallar va uslublar: Qo'ziqorin yetishtirishni boshlashdan oldin o'sha maydonga qaysi nav mos kelishini bilib olish lozim. Buxoro viloyati iqlim sharoitida Shampinyon turi tanlangan, chunki bu turdagi qo'ziqorinlarni o'stirish uchun mitsiliy va boshqa materiallarni ko'p miqdorda sotib olish talab etilmaydi. Shuningdek, qo'ziqorin yetishtirish uchun joyni oldindan tanlab olish kerak. Tanlangan joyni izolyatsiya qilib, tashqi muhitdan ajratib qo'yish lozim. Chunki qo'ziqorin sporalari havo bo'ylab tez tarqalish xususiyatiga ega.

Qo'ziqorindan yuqori hosil olish uchun sifatli mitsiliy tayyorlash yoki sotib olish kerak. Sifatsiz mitsiliy, ko'zlangandek hosil bermaydi. Shu bois ham ishonchli ishlab chiqaruvchilardan tayyor mitsiliy sotib olish eng maqbul usuldir. negaki qo'lda tayyorlangan sporalar kutilgandek sifatga ega bo'lmaydi.



2-rasm. Qo'ziqorin mitseliyasi.

Qo'ziqorin maydonini o'g'itlash. Qo'ziqorinni yetishtirishda yaxshi substrat hisoblanadigan kompost tayyorlash kerak. Kompost uchun harorat 35-40C0 atrofida 40-60 kun davomida saqlanishi kerak. Tayyor bo'lgan kompost qora ranga ega bolib, yoqimsiz hidlari butunlay yo'qoladi.

Maxsus joy tanlanadi. Qo'ziqorin o'stirish uchun maxsus joy tayyorlab olinadi. Yertola yoki issiqxonadan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday joylarda yog'ochdan yasalgan konstruksiyalardan foydalanmagan ma'qul, chunki ular yuqori namlik va sporalar ta'sirida tez ishdan chiqadi. Buning uchun ventilyatsiya tizimi, xona namlantirgichlari va isitgichlardan foydalanish joiz. Substrat sifatida nafaqat zirapchalar, balki sifatli poxoldan foydalanish mumkin. Poxolda mog'or va chirish alomatlari bo'lmasligi lozim. Xonada maxsus metal yasamalardan substratlarni saqlash maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natija. Buxoro sharoitida shanpinyon yetishtirish uchun odatda yerto'lalarda yoki maxsus issiqxonalarda yetishtiriladi. Shampinyon nam va soya joylarni afzal ko'radi. Shanpinyon uchun supstrat - kompost, gumus yoki maxsus oziqlantiruvchi aralashmalar bo'lishi mumkin. Ushbu substrat mitsiliy ekilishidan oldin sterilizatsiya qilinadi. Shanpinyon sporalari substratga teng ravishda tarqatiladi. Shanpinyon uchun ideal harorat 20-25C0 namlik esa 80-90 % atrofida bo'lishi kerak. Ushbu sharoitlarni saqlash uchun maxsus havolantirgich tizimlari va namlantirish usullaridan foydalaniladi. O'simliklar bir necha hafta davomida o'sadi. O'sish jarayonida doimiy ravishda namlikni saqlash va haroratni nazorat qilish lozim. Shanpinyonlar yetilganda ularni ehtiyotkorlik bilan yig'ib olinadi. O'simliklar davomiyligini ta'minlash uchun, doimiy ravishda substrat tayyorlanadi.

Xulosa. Tadqiqot ishlarining keng miqyosda foydalanish mumkinligini inobatga olgan holda xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Buxoro sharoitida shampinyon yetishtirish zaruriyatga aylanmoqda. Buning sababi qo'ziqorinnig yaxshi ta'mi, insonlar tomonidan oziqlanishdagi ahamiyati qolaversa, qo'ziqorin parhezboop bo'lganligi sabab, barcha mamlakatlarda qo'ziqorin yetishtirish va bozorlarda talab va taklifning ortishi bilan bog'liqdir. Demak bularning barchasi tez

fursatda jadallik bilan oshib borayotgan dunyo aholisining, oziq-ovqat tanqisligini oldini olishga qaratilganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- A. I. Morozov, Shanpinyonlar o'stirish.- Moskva, 2003-yil.
Ozarberdiyeva M.P., Atayev B., Gurbanova G.A., "Turkmanirton sharoitida shampinyon yetishtirish.- Toshkent, 2022-yil
Yunusov R, and Ganiyeva F. A. Agrochemical properties of the soils of intensive apple orchards in Bukhara region. BIO Web of Conferences. Vol 166 EDP sciences, 2024.
Yunusov R, Nazarova S, Ganiyeva F, Atayeva Z,. Influence of cultivar combinations and seedling thickness on the formation of photometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards // Центр научник публикatsiy [buxdu. uz].-2020.-Т.10.

УДК:631.84:633.51:581.132.1:

**АЗОТЛИ ЎҒИТЛАР МЕЪЁРИНИНГ БУХОРО- 6 ҒЎЗА НАВИНИНГ
ФОТОСИНТЕЗ СОФ МАҲСУЛДОРЛИГИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА
ТАЪСИРИ**

О.Р.Умаров, З.Х.Бафоева
доцент,
Қ. Қахҳоров
Бухоро ИТС,
Н.Остонова
магистр, Ж.Н.Исломова-талаба
Бухоро давлат университети

Аннотация. Мақолада Бухоро воҳаси турлича даражада шўрланган ўтлоқи аллювиал тупроқларида азотли ўғитлар меъёрининг ғўза Бухоро 6 нави фотосинтез соф маҳсулдорлиги ва ҳосилдорлигига таъсири бўйича маълумотлар келтирилган. Азотли ўғитлар қўллаш натижасида ғўза ўсимлиги биомассасини ва барг сатҳини кескин ортиши ўсимликнинг фотосинтетик соф маҳсулдорлигини юқори даражада бўлишини таъминлади. Шўрланмаган ва ўртача шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқларда азотли ўғитлар меъёрини 250 кг/га гача ортиши ўсимлик фотосинтез соф маҳсулдорлигини ортиб боришига олиб келди. Турлича даражада шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқларда азотли ўғитлар меъёрини 300 ва 350 кг/га ча оширилиши фотосинтез соф маҳсулдорлигини янада ортишига олиб келмади.

Калит сўзлар: тупроқ, шўрланиш, ғўза, фотосинтез, соф маҳсулдорлик, азотли ўғитлар, меъёрлар

Кириш. Фотосинтез жараёнинг жадаллиги ва соф маҳсулдорлиги ўсимлик ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигида муҳим аҳамиятга эга [1,2,3,4,5]. Ўсимликда куруқ модда тўпланиши ва ҳосилни шаклланиши фотосинтез жараёнининг жадаллиги ҳамда унинг соф маҳсулдорлиги билан аниқланади. Шунинг учун, фотосинтез соф маҳсулдорлигининг юқори даражасини таъминлаш экинлардан юқори ҳосил олишда алмаштириб бўлмас агротехнологик тадбирлар ҳисобланади. Фотосинтез жараёни ва уни соф маҳсулдорлигига сезиларли таъсир қилувчи омиллардан бири бу азотли ўғитларни қўллаш ҳисобланади. Тупроқда минерал азот миқдори минимумда бўлганлиги сабабли азотли ўғитларнинг фотосинтез жараёнига таъсири кучли равишда намоён бўлади. Бу ўсимлик ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлигида ўз аксини топади. Шунинг учун республикамізда асосий экинлардан бири бўлган ғўзанинг фотосинтезлаш қобилиятига азотли ўғитлар меъёрининг таъсирини тадқиқ қилиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Материаллар ва методлар. Турли хил даражада шўрланган тупроқларда азотли ўғитлар меъёрини ғўза фотосинтез соф маҳсулдорлиги, ўсиш ва ривожланиши ҳамда ҳосилдорлигига таъсирини аниқлаш учун шўрланмаган ва ўртача шўрланган ўтлоқ аллювиал тупроқлар улардаги сувда эрувчан тузлар миқдори ва таркиби бўйича танлаб олиниб уларда азотли ўғитларнинг 0, 100, 150, 200, 250, 300, 350 кг N /га меъёрини ғўза ўсимлиги

MUNDARIJA

Xamidov Obidjon Hafizovich. KIRISH SO'ZI	3
1-sho'ba. QISHLOQ XO'JALIGIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALAR VA SOHAGA OID MAVJUD MUAMMOLAR.....	5
Sharipov San'at Sulaymonovich, To'xtaev Shonazar Hojiyevich, Xayrullaev Muhriddin Faxriddin o'g'li, Odilov Shaxriyor Erkin o'g'li BUXORO VILOYATI SHAROITIDA POLIZ BITINING ZARARI VA ULARGA QARSHI ZAMONAVIY KURASH CHORALARI	6
Остонакулов Т. Э., Исламов А. Ж., Расулов Ф.Ф. ШИРИН ҚАЛАМПИР ДАР ТАШКЕНТА НАВИ ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЎЎТИЛАШ МЕЪЁРЛАРИ ВА ЎСТИРУВЧИ СТИМУЛЯТОРЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	9
Остонакулов Т. Э., Мейлиева Ҳ. Ш., ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАНДА БОДРИНГ ДУРАГАЙЛАРИ ТАКРОРИЙ ЭКИЛГАНДА ЭКИШ СХЕМАСИ ВА ЎЎТИЛАШ МЕЪЁРИ	12
Нуриллаев И. Х., Жаббаров Б. Ш., Остонакулов Т. Э., САБЗАВОТ (ШИРИН) МАККАЖЎХОРИ АЖРАТИЛГАН МОСЛАНУВЧАН НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ ЎСИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ЭКИШ МУДДАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	16
R.Yunusov, O.U.Muradova Intensiv olma bog'larida bir yillik novdalarining uzunligi va hajmi nav-payvandtag hamda ko'chat qalinligidan bog'liqligi.....	20
Тошпулатова С. Т., Остонакулов Т. Э., Амантурдиев И. Х., ЭРТАГИ КАРТОШКА НАВЛАРИНИНГ ФОТОСИНТЕТИК ФАОЛЛИГИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИ	24
Tilavov X. M., Amirov X. S., Ostonaqulov T. E. QOVUN QOQI HOSILDORLIGI VA SIFATIGA SUG'ORISH TARTIBOTLARINING TA'SIRI.....	27
Atayeva Zamira Alimovna., Yaxyoyeva Mehrinoz Qobilovna BUXORO VILOYATI SHAROITIDA QO'ZIQORIN YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.	29
О.Р.Умаров, З.Х.Бафоева, Қ. Қахҳоров, Н.Остонова АЗОТЛИ ЎЎТИЛАР МЕЪЁРИНИНГ БУХОРО- 6 ҒЎЗА НАВИНИНГ ФОТОСИНТЕЗ СОФ МАҲСУЛДОРЛИГИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	32
Ostonaqulov T. E., Chorshanbiyev P.X., Qovoq nav va duragay namunalari urug'ining unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanligi	34
Остонакулов Т. Э., Тўйчиев Ш. Ш., Исмойлов А.А. ПОМИДОР МУСТАҚИЛЛИК-28 НАВИ ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ТУРЛИ ЎЎТИ МЕЪЁРЛАРИ ВА ЎСТИРУВЧИ СТИМУЛЯТОРЛАРДА ЎРГАНИШИ	37
РОМИДОР КО'ЧАТЛАРИНИ YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI	40
Умирова Д. М., Остонакулов Т. Э., ЎТА ЭРТАГИ ТАРВУЗНИНГ ВАҚТИНЧАЛИК ҲИМОЯЛАНГАН ЖОЙЛАРДА ЕТИШТИРИШГА МОС НАВ ВА ДУРАГАЙЛАРИ	43
Sharipov San'at Sulaymonovich. Avezov To'liq Tavakkalovich, Xayrullayev Muhriddin Faxriddin o'g'li Buxoro viloyati sharoitida oltinko'z entomofagini ko'paytirish texnologiyasi	46
Kamalov Sherzodbek Sabirovich AGRICULTURAL DIGITALIZATION AND TECHNOLOGY IMPLEMENTATION.....	49
Jonimqulov Toxir Ibragim o'g'li Qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan zamonaviy agrotekhnologiyalari.	55
I.A.Raxmonov, B.E.Xolboyev, A.Yo. Karimova ISSIQXONALARDA O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISH.	57
Akbarov Mirjamol Mirodilovich Resistance of root crop varieties (carrots, turnips, radishes) to .60	
Komilova Maftuna Anvarovna Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida mos tarvuz navlarini yetishtirish uchun yerlarni tayyorlash.	64
Safarov Elyor, Olimov Bobir Komiljon o'g'li, Abduvahobov Azizbek – talaba, Xasanboyev Shoxrux – talaba Sholi quritish jarayonini avtomatlashtirish	67
Odilova Zulayxo Zoxidjon qizi, Obidov Muzaffarjon Valijonovich BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYASI ASOSIDAGI PREPARATLARNING ZARARKUNANDA HASHAROT AGROTIS SEGETUMGA TA'SIRI	70